O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884

ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 3

2026

International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Volume 2 Issue 3
2026

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali

3-son
2026

Международный журнал современных научно-технических исследований

Том 2 Выпуск 3
2026

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas’ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay’ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O’zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O’zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro‘yxatidan o‘tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O‘zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© “O‘zMU Jizzax filiali” – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko‘chasi, 259-uy.

RAQAMLI PLATFORMALAR VOSITASIDA BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNI KASBIY KO’NIKMALARNI RIVOJLANTIRUVCHI ELEKTRON DIDAKTIK TA’MINOTI

Abduraxmonova Dildora Alijon qizi

O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, o‘qituvchi (PhD).
e-mail: dildoraalijonqizi002@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0008-0352-2361

Annotatsiya.

Mazkur maqolada raqamli platformalar vositasida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan elektron didaktik ta’minotni takomillashtirish masalalari yoritilgan. Raqamli ta’lim muhitining kengayishi sharoitida bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida elektron ta’lim resurslari, interaktiv topshiriqlar, virtual amaliy mashg‘ulotlar va raqamli platformalardan samarali foydalanishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: raqamli platformalar, elektron didaktik ta’minot, bo‘lajak mutaxassis, kasbiy ko‘nikmalar, kasbiy kompetensiya, raqamli ta’lim, elektron ta’lim resurslari, interaktiv topshiriqlar, virtual amaliyot, mustaqil ta’lim, raqamli texnologiyalar, didaktik vositalar.

ЭЛЕКТРОННОЕ ДИДАКТИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ СРЕДСТВАМИ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ

Абдурахмонова Дилдора Алижон кизи

Национальный педагогический университет Узбекистана, преподаватель (PhD).

Аннотация.

В статье рассматриваются вопросы совершенствования электронного дидактического обеспечения, направленного на развитие профессиональных навыков будущих специалистов посредством цифровых платформ. В условиях расширения цифровой образовательной среды проанализированы дидактические возможности эффективного использования электронных образовательных ресурсов, интерактивных заданий, виртуальных практических занятий и цифровых платформ в процессе подготовки будущих специалистов к профессиональной деятельности.

Ключевые слова: цифровые платформы, электронное дидактическое обеспечение, будущий специалист, профессиональные навыки, профессиональная компетентность, цифровое образование, электронные образовательные ресурсы, интерактивные задания, виртуальная практика, самостоятельное обучение, цифровые технологии, дидактические средства.

ELECTRONIC DIDACTIC SUPPORT FOR DEVELOPING THE PROFESSIONAL SKILLS OF FUTURE SPECIALISTS THROUGH DIGITAL PLATFORMS

Abduraxmonova Dildora Alijon qizi

National Pedagogical University of Uzbekistan, Lecturer (PhD).

Abstract.

This article examines the improvement of electronic didactic support aimed at developing the professional skills of future specialists through digital platforms. In the context of the expanding digital educational environment, the study analyzes the didactic potential of effectively using electronic educational resources, interactive tasks, virtual practical activities, and digital platforms in preparing future specialists for professional practice.

Keywords: digital platforms, electronic didactic support, future specialists, professional skills, professional competence, digital education, electronic educational resources, interactive tasks, virtual practice, independent learning, digital technologies,

didactic tools.

Kirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim tizimining mazmuni, shakllari va metodik ta'minotini yangilashni taqozo etmoqda. Ta'lim jarayoniga raqamli platformalarning keng joriy etilishi natijasida bilimlarni o'zlashtirish, amaliy topshiriqlarni bajarish, mustaqil ta'limni tashkil etish va o'quv faoliyatini monitoring qilishning yangi imkoniyatlari yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, bo'lajak mutaxassislarni zamonaviy mehnat bozori talablariga mos ravishda tayyorlashda raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish ularning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy va kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishga ham xizmat qilmoqda.

Hozirgi kasbiy ta'lim jarayonida mutaxassisdan o'z sohasi bo'yicha bilimga ega bo'lish bilan bir qatorda, axborotni izlash va tahlil qilish, raqamli vositalardan foydalanish, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, jamoada ishlash, o'z faoliyatini baholash va kasbiy vazifalarni ijodiy hal etish kabi ko'nikmalar talab etilmoqda. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda an'anaviy ta'lim vositalarini raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish muhim pedagogik vazifaga aylanmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Oliy ta'lim tashkilotlari ta'lim jarayonida kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish masalalari R. Z. Gaynutdinov, M. G. Davletshin, A. M. Jabborov, S. X. Jalilova, N. Majidov, M. Qoplonova, B. R. Qodirov, B. Sirliev, E. G'. G'oziyev, G'. B. Shoumarov, R. Hamroyev, N. A. Hamedova, M. Z. Hamdamovalarning ilmiy tadqiqot ishlarida; talabalarning kommunikativ kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari N. N. Azizxodjayeva, R. X. Djurayev, U. I. Inoyatov, Z. K. Ismailova, N. A. Muslimov, B. S. Nuridinov, B. A. Nazarova, Q. T. Olimov, X. F. Rashidov, O'. Q. Tolipov, A. R. Xodjabayev, J. A. Hamidov, D. O. Ximmataliev, Sh. S. Sharipov, M. B. Urazova, M. I. Toshpo'latovalarning tadqiqot ishlarida o'rganilgan.

Raqamli platformalar vositasida kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish B. Qodirov, G. To'laganova, N. Safayeva, V. Karimova, F. Akramovalarning tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

MUHOKAMA

R. Musurmonov raqamli platformalar vositasida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish mezoni sifatida "pedagogik jamoa tomonidan tan olingan, o'quvchilarning ta'sirini o'zida his qilib, yuqori natijalarga erishgan faoliyatining tizimi va ketma-ketligini" ko'rsatadi [1; 55-b.].

V. I. Nazarov raqamli platformalar vositasida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish xususiyatlari sifatida "...murakkab ishlarni tezkorlik bilan aniq va chaqqon bajarish, ...barqaror mehnat maromini yuqori sifat darajasida ta'minlovchi ishonchli faoliyat"ni e'tirof etadi [3; 36-b.].

D. Raven bu borada quyidagi fikrni bildiradi: "Raqamli platformalar vositasida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi pedagogik ko'nikmalar hajmini o'lchash birliklari:

1. raqamli platformalar vositasida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishda pedagogning u yoki bu ko'nikmadan foydalanish jarayonidagi xatti-harakatlar miqdori;
2. xatti-harakatlarning ketma-ketligi" [5; 99-b.].

Pedagog bajarayotgan xatti-harakatlarning miqdori ko'nikmalar barqarorligi va mukammalligidan darak bersa, ularning ketma-ketligi esa pedagogik ko'nikmalar anglanganligini, ya'ni nazariy bilimlarga tayanganligini bildiradi. Mukammallik, anglanganlik va barqarorlik raqamli platformalar vositasida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishning o'zlashtirilganlik darajasini belgilovchi asosiy mezonlar hisoblanadi.

V. I. Nazarovning tadqiqot ishlarida raqamli platformalar vositasida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish xususiyatlari tariqasida materialni chuqur o'zlashtirish, xatti-harakatlar maqsadini yuqori darajada anglab yetish, sa'y-harakatlarni rejalashtirish, pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlari, shakl va usullarini bilish, qarorlarni qabul qilishdagi o'ta mustaqillik, faoliyatning o'zgaruvchanligini anglab yetish, tarbiyalanuvchilarning ta'siri va o'quv-tarbiya ishlariga ijodiy yondashuv ko'rsatiladi [4; 41-b.].

Tadqiqot ishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, lozim deb topilgan yoki zarur bo'lgan tushunchaning muhim sifatlarini umumta'lim maktablari faoliyatining muhim negizini tashkil etuvchi kasbiy ko'nikmalarning tuzilishi, mazmuni va tamoyillarini nazariy jihatdan bilish tashkil etadi.

Shu tamoyillar asosida biz lozim yoki zarur bo'lgan tushunchaga quyidagicha ta'rif berdik:

Raqamli platformalar vositasida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishda talaba shaxsini komil inson qilib rivojlantirishga yo'naltirilgan, innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida aniq maqsad sari yetaklovchi, subyekt tomonidan muvaffaqiyatli o'zlashtirilgan sa'y-harakatlarning muayyan tizimiga aytiladi.

Raqamli platformalar vositasida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish ko'p qirrali murakkab jarayon bo'lib, u muayyan ketma-ketlik, ierarxik sa'y-harakatlar tizimidan iborat. Shuningdek, kasbiy ko'nikmalar pedagog faoliyati tuzilishida muhim element hisoblanib, ichki murakkab konstruksiyaga ega, umumiy maqsad bilan belgilangan ko'nikma shaklidagi alohida elementlar tizimidir.

Shu ma'noda, raqamli platformalar vositasida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. V. I. Nazarov talqinida (mazkur jarayonda S. L. Rubinshteyn, A. N. Leontev, L. S. Vigotskiy, M. A. Mileryan, N. V. Kuzmina, M. G. Davletshin, R. Z. Gaynutdinov, N. M. Majidov va boshqalarning o'qituvchi kasbiy faoliyati tuzilishi haqidagi ta'limotiga tayandik) [2; 89-b.].

Raqamli platformalar vositasida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning yaxlit tizimini yaratishda biz yagona maqsadli tizimni tashkil etuvchi quyidagi metodologik tamoyilga amal qildik: pedagoglarni psixologik-pedagogik va maxsus kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun saralab olingan har bir tuzilish muayyan maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, pirovard natijada talabalarni kasbiy faoliyatga to‘laqonli tayyorlashning umumiy, yaxlit kasbiy tayyorgarligini ta’minlashga xizmat qilishi kerak.

NATIJALAR

Raqamli platformalar vositasida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish mazmuni barcha kurslarni o‘zlashtirish manzarasida umumkasbiy fanlarni ham belgilangan vaqt oralig‘ida o‘zlashtirishni nazarda tutadi.

Mazkur tizimni yaratish jarayonida raqamli platformalar vositasida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish dinamikasi ham inobatga olingan. U o‘zaro bog‘liq uch bosqichdan iborat:

1. *Propedevtik bosqich (yo‘naltiruvchi-tanishtirish).* Bu bosqichda raqamli platformalar vositasida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning kasbiy faoliyati bilan tanishish ishlari olib boriladi.
2. *Asosiy bosqich.* Pedagoglarning o‘z kasbini muvaffaqiyatli egallashi uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar tizimi bilan tanishtiriladi, raqamli platformalar vositasida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha ijobiy munosabati shakllantiriladi. Mazkur bosqich ikkinchi kurslarda olib boriladi.
3. *Yakuniy bosqich.* Bu bosqichda raqamli platformalar vositasida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish ko‘nikmalarini sintezlash va mustahkamlash ishlari o‘tkazilib, bitiruvchi kurslarni qamrab oladi.

Barcha kurslarda raqamli platformalar vositasida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha bosqichlar o‘zaro birlikda, mazmunining istiqbol yo‘nalishi esa bosqichlarning ketma-ketligini va uzviyligini ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Tadqiqot ishlaridan ma’lum bo‘lishicha, raqamli platformalar vositasida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga samarali tayyorlovchi har qanday yaxshi tashkiliy shakl yoki usul oliy ta’lim tashkilotlaridagi o‘quv-tarbiya ishlarining mazmuni bilan uyg‘un bo‘lmasa, kutilgan natijaga erishib bo‘lmasligi ma’lum bo‘ldi.

Dastlab, raqamli platformalar vositasida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishni amalga tatbiq etish uchun quyidagilarni inobatga olish zarur:

a) raqamli platformalar vositasida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish uchun qaysi nazariy materiallardan foydalanish mumkinligini;

b) raqamli platformalar vositasida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda kasbiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun ta’limning qaysi metod, shakl va usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqligini;

v) raqamli platformalar vositasida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning o‘ziga xos va umumiy jihatlarini;

d) raqamli platformalar vositasida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ko‘lamini bilishi va shu kabilar.

XULOSA

Raqamli platformalar vositasida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta’lim jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Raqamli ta’lim imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash, mustaqil ishlash faolligini oshirish va kasbiy vazifalarni bajarishga tayyorgarligini kuchaytirish imkonini beradi.

Tadqiqot tahlillari elektron didaktik ta’minotning samaradorligi uning mazmuni, metodik tuzilishi va raqamli platformalarning funksional imkoniyatlaridan pedagogik maqsadga muvofiq foydalanishga bog‘liqligini ko‘rsatdi. Elektron o‘quv materiallari, interaktiv topshiriqlar, testlar, amaliy mashg‘ulotlar, videomateriallar, virtual topshiriqlar va kasbiy vaziyatlarga asoslangan keyslarning tizimli qo‘llanilishi bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi.

Raqamli platformalarning muhim didaktik imkoniyatlaridan biri ta’lim jarayonini individuallashtirish va talabaning mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Talabalarning bilim darajasi va individual ehtiyojlariga mos topshiriqlarni taqdim etish, bajarilgan faoliyatni tezkor baholash hamda natijalarni monitoring qilish ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, loyiha, muammoli vaziyat, amaliy topshiriq va kasbiy keyslar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning qaror qabul qilish, muammolarni hal etish va ijodiy yondashish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Elektron didaktik ta’minotni ishlab chiqishda uning faqat axborot beruvchi vosita sifatida emas, balki talabaning faol kasbiy faoliyatini tashkil etuvchi pedagogik mexanizm sifatida qaralishi muhimdir. Bunda elektron resurslarning mazmuni kasbiy kompetensiyalar bilan uzviy bog‘lanishi, topshiriqlar amaliy yo‘naltirilishi, baholash mezonlari aniq belgilanishi va talabaning o‘z faoliyatini tahlil qilishiga imkon beruvchi refleksiv mexanizmlar joriy etilishi zarur.

Umuman olganda, raqamli platformalar asosida ishlab chiqilgan elektron didaktik ta’minot bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish uchun samarali pedagogik imkoniyat yaratadi. Mazkur yondashuv ta’limning interaktivligi, individualligi va amaliy yo‘naltirilganligini kuchaytirib, bo‘lajak

mutaxassislarni zamonaviy kasbiy faoliyat talablariga mos ravishda tayyorlashga xizmat qiladi. Shu sababli oliy ta'lim jarayonida raqamli platformalar imkoniyatlarini elektron didaktik resurslar bilan uyg'unlashtirish va ularni muntazam takomillashtirib borish ta'lim sifatini oshirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Musurmanov R. *Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va boshqarish.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011. – 143 b.
2. Назаров В. И. Возможности новых информационных технологий в социальной работе с разными группами молодёжи // *Новые социальные технологии в сфере работы с молодёжью и пожилыми людьми: материалы Первой международной научно-практической конференции* / В. И. Назаров, Л. В. Куклина. – Иваново, 2003. – Электронный ресурс. – Источник
3. Пойя Д. *Математическое открытие.* – Москва: Наука, 2001. – 452 с.
4. Равен Дж. *Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация* / пер. с англ. – Москва: Когнито-Центр, 2002. – С. 253.